



O'YINLARNING KELIB CHIQUISH TARIXI VA BOLALAR O'YINLARINING AHAMIYATI

Matmusayeva Muhayyo Azamovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Akimjonova Risolat Shokirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- apiril 2023 yil

Ma'qullandi: 05-april 2023 yil

Nashr qilindi: 11-april 2023 yil

KEY WORDS

*o'yin, o'yinchoqlar, ta'lim, ibtidoiy
kishilar davri.*

ABSTRACT

Maqolada o'yinlar ibtidoiy kishilar mehnat madaniyati paydo bo'lgan davrlarda vujudga kelganligi va qaysi ma'nolarda qo'llanilishi va bolalar o'yinlarining ahamiyati haqida so'z boradi.

O'yin kishilarning mehnat madaniyati paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiga aylangan tarixiy bosqichida vujudga kelgan. O'yinlar ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. O'yinlarda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos ijtimoiy voqealar aniq aks etadi. Ko'plab mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o'yinlar mohiyatini, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyatini o'rganmoqdalar. Shunga ko'ra o'yinning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli xil nazariyalar, fikrlar va qarashlar ham mavjud. D.U.Elkonin o'yin va san'atning kelib chiqishini tatbiq qilib " Ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini hamda boshqa jiddiy faoliyat turlarini o'yinlarda ifodaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizliklarni o'yin sifatida o'ynash ularga ov jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni hamda muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini aniqlashga yordam bergan" degan xulosaga keldi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, ovdan oldingi tayyorgarlik sifatidagi o'yin jarayonida ibtidoiy odamlar o'ljaga yaqinlashishni so'ngra uni osongina qo'lga tushirishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishgan, uning yurish-turishlari, xatti-harakatlari mashq qilingan, ularning tovush chiqarishlari o'rganilgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu bois o'yinlar o'ziga mos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilik mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda taqlid qilish san'atini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Rus tilida "o'yin" so'zi juda noaniq, "o'yin" so'zi o'yin-kulgi ma'nosida, ko'chma ma'noda qo'llaniladi. E.A.Poprovskiyning ta'kidlashicha "o'yin" tushunchasi umuman olganda bir oz farq qiladi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar orasida "o'yin" so'zi bolalarga xos bo'lgan xatti-harakatlarni anglatib, asosan biz "bolalikka berilish" deb ataydigan tushunchalari ifodalaydi. Yahudiyalar orasida "o'yin" so'zi hazil va kulgi tushunchasiga mos keladi. Keyinchalik, barcha Yevropa tillarida "o'yin" so'zi, bir tomondan, o'zini og'ir mehnat sifatida ko'rsatmasdan, boshqa tomondan, odamlarga zavq bag'ishlovchi insoniy xatti-harakatlarning keng doirasini bildira boshladi. Shunday qilib, bolalarning askarlar o'yinidan tortib, teatr sahnasida qahramonlarning fojiali reproduksiyasigacha bo'lgan barcha narsalar ushbu tushunchalar

doirasiga kiritila boshlandi.

Bolalar o'yinlari - bolalarni aqliy, jismoniy, intellektual, estetik va axloqiy tarbiyalash va rivojlantirish sharti. Bolalar o'yinlari asosan ikki vazifani bajaradi:

- bolaning ishtiyoqini oshirish, estetik zavq berish va ko'ngil ochish.
- bolaga o'yin jarayoni orqali ta'lim va tarbiya berish.

Bolalar o'yinlari mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'yinchoqli o'yinlar. Bu o'yin asosan maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlaridir. (Sodda o'yinchoqlar, qum, kubik, shiqildoqlar)
2. Voqeaband o'yinlar. Bolalar voqeaband o'yinlarda kattalar faoliyatiga taqlid qiladilar. Bola ulg'aygan sari ularning voqeaband o'yinlari ham murakkablasha boradi. Bu o'yin turiga "doktor-doktor", "qo'shni-qo'shni" kabi o'yinlar kiradi.
3. Harakatli o'yinlar bolalar sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning faolligi va harakatchanligini oshiradi. Bu o'yinlar sirasiga "oq terakmi-ko'k terak?", koptok o'ynash, tez yugurish va boshqalar kiradi.
4. Didaktik o'yinlar yuqoridagi barcha o'yinlar elementlarini o'ziga jamlagan va u bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'yinlarni tarbiyachi, pedagoglar o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinlar asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi katta guruhlarda tarbiyalanadigan bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan.

Bolalar o'yinlarining ahamiyati ularning rivojlanishini tengdoshlarini bilan bir xil tarzda borishini, salomatligi va harakatchanligini ta'minlash, ijtimoiylashuviga yordam berish, bevosita va bilvosita bilimlarini boyitishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Galiyev, O'zbek bolalar o'yin folklori. T.: 1998;
2. S.Yo'ldashev, Bolalar o'yinlarining pedagogik asoslari va metodikasi, Farg'ona. 2020;
3. D.R.Babayeva, Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. T.:2018 .
4. Матмусаева, М. А. (2017). Оилада болаларни меҳнатга ўргатиш. Молодой ученый, (4-2), 23-24.
5. Матмусаева, М. А. (2019). ИНТЕГРАЦИЯ В РАЗВИТИИ ЧУВСТВА РОДИНЫ В ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ. Актуальные научные исследования в современном мире, (3-4), 103-106.
6. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING O 'RNI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В4. – С. 139-141.
7. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАР ПОРТФОЛИОЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ШАРОИТЛАРИ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 9, pp. 129-131). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
8. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ХАРАКТЕРИ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 9, pp. 127-128). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
9. Махамдалиевна, Y. D., & Matmusaeva, M. (2021). On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity, 11, 169-171.
10. Матмусаева, М. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ-МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ИЖТИМОЙ ТАРБИЯ МАСКАНИ. IJODKOR O'QITUVCHSI, 2(20), 130-132.

11. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI O 'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND ED
12. Matmusayeva, M. A., & Rustamova, N. A. (2021). DEVELOPING LOGICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN. Theoretical & Applied Science, (6), 658-660.
13. Azamovna, M. M. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PRESCHOOL CHILDREN.



**INNOVATIVE
ACADEMY**